



## O'ZBEKISTON IQTISODIY SIYOSATINING RIVOJLANISHI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

**Mamatov Akbar Baxtiyorovich, Xodjaqulov Islombek**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Anotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, uning rivojlanish bosqichlari hamda iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar o'rganilgan. Iqtisodiy siyosatning fiskal, pul-kredit, sanoat, hududiy va ekologik yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, mamlakatning yaqin yillarda YAIM o'sish sur'atlari, iqtisodiy diversifikatsiya, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga oid chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston iqtisodiy siyosati, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, sanoat rivojlanishi, YAIM o'sishi, iqtisodiy diversifikatsiya, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, barqaror iqtisodiyot, raqobatbardoshlik.

**Iqtisodiy siyosat** – bu davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va rivojlantirish uchun qo'llaydigan strategiyasi va choralari majmuasidir. Bu siyosat davlatning iqtisodiy maqsadlariga erishish, barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun ishlab chiqiladi. Iqtisodiy siyosat davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan turli yo'nalishlarga ega. Bunga misol qilib, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, tashqi iqtisodiy siyosat, sanoat siyosati, hududiy siyosat va ekologik siyosatni keltirish mumkin. Bu siyosatlarni qanday vazifalarni bajaradi va davlatga qanchalik foyda keltiradi? Endi ularga birma-bir to'xtalsak.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tabiiyboylik, O'zbekiston tabiiy gaz, oltin, mis va paxta kabi boy resurslarga ega. Bu resurslar eksport daromadining asosiy qismini tashkil qiladi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Diversifikatsiya va sanoatlashtirish: Sanoat zonalari va maxsus iqtisodiy zonalarning rivoji iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynamoqda. 2024-yilda 841 yangi loyiha amalga oshirilishi kutilmoqda.

Islahotlar va boshqaruv samaradorligi: Soliq tizimini soddalashtirish, xususiy sektorga berilgan imkoniyatlarni kengaytirish va davlatning raqamlashtirish bo'yicha tashabbuslari iqtisodiy faollikni oshirdi.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi: Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari va investitsiyalar natijasida mahsuldorlik oshmoqda. Bu ichki talabni qondirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish va texnologik klasterlar (masalan, yarimo'tkazgich va elektronika sanoati) iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shmoqda.

### **Tashqi omillar:**

Xalqaro savdo va investitsiyalar: Xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar, jumladan, qulay soliq va tarif tizimlari o'sishga hissa qo'shmoqda. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning diversifikatsiyasi va yangi bozorlarni o'zlashtirish muhim o'rin tutadi.

Geosiyosiy joylashuv: Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi orqali transport va logistika infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Bu O'zbekistonning tranzit imkoniyatlarini oshirmoqda.

**Fiskal siyosat** - bu davlatning xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosatdir. Ushbu siyosat orqali davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam sak/gab turishga qaratilgan chora-tadbirlari.

**Pul-kredit siyosati** - bu hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam sak/gab turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'paytiriladi, inflyasiyann pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Markaziy bank Pul kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to'g'ridan to'g'ri o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosat – bu davlatning chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar majmuasi. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish, hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

**Sanoat siyosati** – bu bu davlat tomonidan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. U iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va strategik sohalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqiladi.

Hududiy siyosat – bu davlat tomonidan mamlakat hududlarini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan strategik chora-o'barqaror rivojlanishi, turli mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashni maqsad qiladi.

Ekologik siyosat – bu davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, qonunlar va strategiyalar tizimidir. Ushbu siyosat insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga va global ekologik muammolarga qarshi kurashishga qaratilgan.

Iqtisodiy siyosatning rivojlanishi tarixan turli davrlar va iqtisodiy olimlar tomonidan boyitilgan. Har bir davrda iqtisodiy tizimlar, ularning maqsadlari va yondashuvlari o'zgarib bordi. Iqtisodiy siyosat, shuningdek, mavjud iqtisodiy tizimlarning o'zgarishiga javoban yangi yondashuvlarni talab qilgan. Keling har bir davrni birma bir ko'rib chiqsak. Antik davir iqtisodiy siyosati Qadimiy Yunoniston va Rimda iqtisodiy siyosat: Yunoniston va Rimda iqtisodiy siyosatning dastlabki shakllari, ayniqsa, savdo va er resurslarining boshqarilishi bo'yicha mavjud edi. Platon va Aristotel o'z asarlarida iqtisodiyot va uning davlat


## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

boshqaruvidagi o'rnini tahlil qilishgan. Aristotel, davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi, masalan, pullarning adolatli taqsimlanishi haqida yozgan. Merkantilizmning asosiy mohiyati shundan iboratki, u iqtisodiy boylikni mamlakatdagi oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar (pul) orqali o'lchaydi, ishlab chiqarishda emas. Bu ta'limotga ko'ra, davlat tashqi savdoni nazorat qilib, eksportni rag'batlantirishi va importni cheklashi kerak. Merkantilizm eksportni kuchaytirish va importni kamaytirish orqali boylikni orttirishga qaratilgan siyosatni ilgari suradi. Bunda davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi, mahalliy sanoatni himoya qilish va savdoni tartibga solish zarur deb hisoblanadi. Savdo balansi ham muhim ahamiyatga ega: ijobiy tashqi savdo balansi mamlakat boyligini oshiradi. Shu tariqa, merkantilizm iqtisodiy siyosatni tashqi savdoni boshqarish va davlatning iqtisodiy faoliyatga to'liq aralashuvi orqali mamlakat boyligini oshirishga yo'naltirgan. Merkantilizmning yemirilishi va klassik siyosiy iqtisod maktabining paydo bo'lishi XVII asrda Angliyada boshlandi. Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi iqtisodiy ta'limotlarni ilmiy asosda rivojlantirish imkoniyatini yaratdi. Klassik iqtisodiy maktabning asoschilari Adam Smit, David Rikardo, va Tomas Maltus iqtisodiyotning samarali ishlashini tushuntirib, bozor orqali boylikning taqsimlanishini ko'rsatdilar. Adam Smit "Xalqlar boyligi" asarida boylikni tovar va xizmatlardan olinadigan foyda bilan o'lchashni taklif etdi va "ko'rinmas qo'l" nazariyasini ishlab chiqdi, bu bozor iqtisodiyotida alohida manfaatlarning jamiyat foydasiga uyg'unlashishini tushuntirdi. David Rikardo qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirib, daromad taqsimotini tahlil qildi. Tomas Maltus esa, aholi o'sishi va oziq-ovqat resurslari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib, iqtisodiy o'sishning tabiiy chegaralarini belgiladi. Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishining bosqichlari merkantilizmning xatolarini tuzatish, Smitning asarlarida o'zgarishlar kiritish va Rikardo hamda Maltusning nazariyalarini yaratishdan iborat bo'ldi. Bu ta'limotlar zamonaviy iqtisodiyotda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy fikrlarning rivojlanishi turli davrlarda turli nazariyalar orqali amalga oshdi. Avvalgi merkantilizm davrida iqtisodiy siyosat, davlat aralashuvi va savdodan boylik yaratish tamoyillari asosida yuritilgan bo'lsa, XVII asrda klassik iqtisodiy maktabda bozor erkinligi, mehnat taqsimoti va minimal davlat aralashuvi kabi g'oyalari rivojlandi. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi va mehnat taqsimoti ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam berdi. David Rikardo qiymat va daromad taqsimoti haqida yangi nazariyalar ishlab chiqdi, Tomas Maltus esa aholi o'sishi va resurslar taqchilligi masalalarini tahlil qildi. XIX asr oxirida esa neoklassik iqtisodiy qarashlar shakllanib, klassik

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

maktabning asosiy tamoyillari yangi sharoitlarga moslashtirildi. Shunday qilib, iqtisodiy fikrlar doimiy rivojlanib, bozor tizimlarining samaradorligi, erkin raqobat va resurslarni taqsimlash asoslangan.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar, qonunlar va Prezident qarorlari ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston hukumati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, eksportni ko'paytirish va ish o'rinlarini yaratish maqsadida bir qator yangiliklarni joriy etmoqda. Buning natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, raqamli transformatsiya va ijtimoiy rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq va bojxona tizimi soddalashtirilmoqda, iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida yangi innovatsion loyihalar va strategiyalar amalga oshirilmoqda. Davlatning iqtisodiy siyosati, shuningdek, tashqi savdo va global iqtisodiyot bilan integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan. Bularning barchasi O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishiga xizmat qilmoqda.



2018 yildan 2023 yilgacha O'zbekistonning real YAIM (yalpi ichki mahsulot) o'sish sur'ati diogrammada tasvirlangan. Grafikdan ko'rinib turibdiki:

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

- 2018 va 2019 yillarda o'sish sur'ati mos ravishda 5.4% va 5.6% ni tashkil etgan.
- 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ta'sirida o'sish 1.6% gacha pasaygan.
- 2021 yilda tiklanish boshlangan va o'sish sur'ati 7.4% ga ko'tarilgan.
- 2022 va 2023 yillarda o'sish barqarorlik kasb etib, mos ravishda 5.7% va 6.0% ni tashkil etgan.

Sanoati: O'zbekiston Respublikasida 2023 yilda sanoat zonalarida joylashgan korxonalar tomonidan 53,4 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 972 million dollarlik eksport amalga oshirilgani qayd etilgan. 2024 yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan.

Ma'lum qilinishicha, 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 766 ta sanoat zonasi, jumladan, 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 532 ta kichik sanoat zonasi, 210 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari tashkil etildi. Mazkur obektlarning bosh rejalariga muvofiq investitsiya loyihalari uchun umumiy maydoni 11 ming 952,1 gektar yer ajratilgan. «Sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yildan yilga kengaymoqda. 2024 yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu 2023 yildagi ko'rsatkichdan (965 ta loyiha) 124 taga kam bo'lsa-da, bu o'zgarish yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining yiriklashishi va ish o'rinlari sonining ancha ko'payishi bilan bog'liq. Masalan, sanoat zonalarida 2023 yilda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 9,7 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu maqsadlar uchun 13,3 trillion so'm jalb etiladi»,

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash; yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishra ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

**Xulosa va takliflar:** O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy resurslardan samarali foydalanish, sanoatni diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali izchil rivojlanmoqda.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQUVCHI INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Shuningdek, ichki islohotlar, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish va ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor esa uzoq muddatli rivojlanish uchun asos bo'lmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy resurslardan samarali foydalanish, sanoatni diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali izchil rivojlanmoqda. Shuningdek, ichki islohotlar, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish va ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor esa uzoq muddatli rivojlanish uchun asos bo'lmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia
2. O'zbekiston Respublikasi statistika agensligi
3. Kun.uz va Uza.uz